

IJTIMOIY-MADANIY O'ZGARISHLAR SHAROITIDA OLIY TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH: IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL

Baratbayev Bekzod Batirovich

Qo'qon davlat universiteti Milliy g'oya va huquq kafedrasi dotsenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16683802>

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar sharoitida oliy ta'lim tizimining rivojlanish masalasini ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilishga bag'ishlangan. Bugungi kunda jamiyatda ro'y berayotgan globallashuv, axborot texnologiyalarining rivojlanishi, qadriyatlarining transformatsiyasi kabi ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar oliy ta'lim tizimiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Mazkur tadqiqotning maqsadi ana shu o'zgarishlar sharoitida oliy ta'lim tizimining rivojlanish tendensiyalarini aniqlash, mavjud muammolarni tahlil qilish va ularni hal etishga qaratilgan ijtimoiy-falsafiy yondashuvlarni ishlab chiqishdan iborat.

Kalit so'zlar: Oliy ta'lim tizimi, ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar, globallashuv, ijtimoiy-falsafiy tahlil, tanqidiy tafakkur, innovatsion yondashuv, Shaxsni shakllantirish.

Annotation: This study is devoted to the socio-philosophical analysis of the development of the higher education system in the context of socio-cultural changes. Today, processes such as globalization, the advancement of information technologies, and the transformation of values occurring in society have a significant impact on the higher education system. The aim of this research is to identify the development trends of higher education under these changing conditions, to analyze existing problems, and to develop socio-philosophical approaches aimed at addressing them.

Key words: Higher education system, socio-cultural changes, globalization, socio-philosophical analysis, critical thinking, innovative approach, personal development.

Аннотация: Данное исследование посвящено социально-философскому анализу проблемы развития системы высшего образования в условиях социально-культурных изменений. В современном обществе такие процессы, как глобализация, развитие информационных технологий и трансформация ценностей, оказывают серьёзное влияние на систему высшего образования. Цель данного исследования — выявить тенденции развития системы высшего образования в условиях этих изменений, проанализировать существующие проблемы и разработать социально-философские подходы к их решению.

Ключевые слова: Система высшего образования, социально-культурные изменения, глобализация, социально-философский анализ, критическое мышление, инновационный подход, формирование личности.

Bugungi globallashuv, axborot texnologiyalari, raqamli madaniyat va qadriyatlar tizimidagi o'zgarishlar zamonaviy jamiyat hayotini tubdan o'zgartirib yubormoqda. Bu esa o'z o'rnida kelajagimiz poydevori bo'lmish yosh avlodga ta'sir etmay qolmaydi. Ayniqsa, bu jarayonlar oliy ta'lim tizimiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Oliy ta'lim endilikda faqat bilim beruvchi muassasa emas, balki shaxsning ma'naviy va madaniy shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynovchi ijtimoiy institut sifatida ko'rilmogda. Ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan qaralganda, oliy ta'lim ijtimoiy ongni shakllantiruvchi, shaxsni madaniy jihatdan rivojlantiruvchi va uni jamiyatga integratsiya qiluvchi kuchli mexanizm sifatida namoyon

bo'ladi. Shu bois ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar jarayonida oliy ta'lim tizimini qayta ko'rib chiqish, yangicha yondashuvlar asosida rivojlantirish zarurati dolzarb masalaga aylanmoqda.

Mazkur ilmiy tahlil ijtimoiy-falsafiy yondashuv, madaniyatshunoslik, ta'lim falsafasi hamda modernizatsiya nazariyalari asosida olib borilib falsafa fani ta'limning mohiyatini ochib berishda, uning maqsad va vazifalarini aniqlashda asosiy epistemologik vosita bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, shaxs va jamiyat munosabatlari, madaniyat va ongning o'zaro bog'liqligini tahlil etishda falsafiy asoslar fundamental ahamiyatga ega. Turli falsafiy yondashuvlarni o'rganish va tahlil qilish insoniyatning o'zini o'zi anglashini chuqurlashtirishga, ijtimoiy hayotni takomillashtirishga, madaniyatlararo tushunishni rivojlantirishga va ongning murakkab tabiatini ochib berishga yordam beradi. Ma'lumki, ilg'or universitetlar ilmiy bilimlarni yaratish va texnologiyalarni uzatish bo'yicha kuchli markaz sifatida jamiyatning innovatsion taraqqiyotida muhim turtki beruvchi omil sanaladi. Keng qamrovli universitet ta'limi yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etishga tayanadi, bu esa kasbiy ko'nikmalarga avvaldan ega bo'lish imkoniyatini yaratadi. Bunday ta'lim shakli doimiy yangilanib boradigan bilimlarni yetkazishga, asosiy kompetensiyalarni shakllantirishga (ya'ni mustaqil bilim olishga layoqatlilikka) hamda yangi bilimlarni yaratish jarayoniga jalb etishga (asosiy fanlar, o'quv jarayoni va ishlab chiqarishning o'zaro bog'liqligi orqali) qaratilgan. Zamonaviy globallashtirish jarayonlari va axborot texnologiyalarining rivojlanishi sharoitida ushbu falsafiy masalalarni tahlil qilish yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Oliy ta'limga doir ilg'or nazariyalar (J.Dyuining tajriba asosidagi ta'lim modeli, P.Freyrening tanqidiy pedagogikasi, K.Hutchinsonning holistik yondashuvi va b.) ham tadqiqotda asosiy metodik manba sifatida foydalanilgan. Ijtimoiy-madaniy o'zgarishlarning ta'siri va mavjud muammolar sifatida zamonaviy jamiyatda quyidagi ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar kuzatilmoqda: Globallashtirish va madaniy aralashuv oqibatida jamiyatda chuqur ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar yuz bermoqda. Bugungi kunda dunyo xalqlari o'rtasidagi aloqalarning jadallashuvi nafaqat iqtisodiy va siyosiy sohalarida, balki madaniyat, ma'naviyat va qadriyatlar tizimida ham sezilarli darajada aks etmoqda. Talabalarda madaniy begonalashuv, o'zlikni yo'qotish, milliy qadriyatlarga befarqlik holatlari ortishiga olib kelishi mumkin bo'lgan murakkab jarayondir. Bu tendensiya nafaqat O'zbekiston, balki dunyoning ko'plab mamlakatlarida kuzatilmoqda.

Axborotning haddan ziyodligi va texnologiyalarning tez sur'ati bugungi kunda chuqur bilim olish o'rniga tez va yuzaki ma'lumotga moyillikni kuchaytirayotgani kuzatilayotgan tendensiyadir. XXI asrda "axborot portlashi" deb ataluvchi hodisa natijasida inson har kuni millionlab ma'lumotlar oqimi ichida yashashga majbur bo'lmoqda. Bunday holat esa ko'plab ijtimoiy, psixologik va madaniy muammolarni yuzaga keltiradi. Birinchidan, axborot ortig'i inson ongiga yuklama beradi. Har bir yangilik, har bir vizual yoki matnli kontent inson tafakkurini band qiladi. Bu holat diqqatning tarqoqlashuviga, fikrlash chuqurligining pasayishiga olib keladi. Inson axborotga chuqur kirib borish o'rniga, yuzaki baholash va tezda unutishga o'rgana boshlaydi. Ikkinchidan, texnologiyalar tez sur'atda o'zgarar ekan, inson ularga moslashishga ulgura olmay qolmoqda. Har bir yangilik, har bir yangi platforma, sun'iy intellekt, algoritmlar, raqamli vositalar jamiyatda "raqamli stress" holatini yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, yoshlar bu jarayonning markazida turib, ko'pincha real hayot va virtual muhit o'rtasida muvozanatni yo'qota boshlaydi. Uchinchidan, axborotning ko'pligi — ishonchli va soxta ma'lumotni farqlashni qiyinlashtiradi. Ijtimoiy tarmoqlar, bloglar, onlayn yangiliklar

oqimi orasida tanqidiy fikrlash, axborotni tahlil qilish qobiliyati eng muhim ko'nikmaga aylanmoqda. Ammo ko'pchilik bunday salohiyatga ega emas, bu esa noto'g'ri qarorlar, stereotiplar va ijtimoiy manipulyatsiyalar xavfini kuchaytiradi. To'rtinchidan, shaxsiy hayot va ruhiy salomatlik tahdid ostida qolmoqda. Doimiy onlayn bo'lish, ekran oldida ko'p vaqt o'tkazish, sun'iy muloqot shakllari insonni yolg'izlik, befarqlik, hattoki depressiyaga olib borishi mumkin. Odamlar real hayotdagi hissiy aloqalardan uzoqlashib, sun'iy "raqamli ijtimoiylik" bilan cheklanib qolmoqda. Bu esa chuqur tahlil qilish va o'rganish zaruratini kamaytirishi mumkin. Tezkor yangilanishlar: Texnologiyalar juda tez rivojlanib bormoqda, bu esa ma'lumotlarning ham tez eskirishiga olib keladi. Shuning uchun ko'pchilik eng so'nggi, lekin yuzaki ma'lumotlarni olishga intiladi. Qisqa formatdagi kontentning mashhuriligi: Ijtimoiy tarmoqlar va boshqa platformalarda qisqa formatdagi (matnlar, videolar) kontentning keng tarqalishi odamlarning diqqatini uzoq vaqt bir joyga jamlash qobiliyatiga ta'sir qilishi mumkin. E'tiborni jalb qilish uchun kurash: Internetda axborot juda ko'p bo'lgani uchun, kontent yaratuvchilar foydalanuvchilarning e'tiborini jalb qilish uchun ko'pincha sarlavhalarning yorqinligi va ma'lumotning yuzakiligiga e'tibor berishadi. Qadriyatlar transformatsiyasi – bugungi kunda yosh avlodning dunyoqarashi, qadriyatlarga munosabati, hayotga qarashlari oldingi avlodlardan sezilarli darajada farq qilmoqda. Ilgari muqaddas deb hisoblangan me'yorlar – hurmat, sadoqat, sabr, ota-onaga itoat, mahalliylik ruhi, jamoaviylik – asta-sekin individualizm, erkinlik, tez muvaffaqiyatga erishish, global tafakkur bilan almashinmoqda. Bu holat, bir tomondan, taraqqiyot va yangilanish belgisi bo'lsa, boshqa tomondan, milliy o'zlik va ma'naviy barqarorlikka tahdid soluvchi omilga aylanishi ma'naviy va axloqiy tamoyillarning o'zgarishi ta'lim mazmuniga ham ta'sir qilmoqda. Bunig oqibatida ijtimoiy mas'uliyatning susayib fuqarolarning jamiyat, davlat, tabiat, atrof-muhit va boshqalarga nisbatan bo'lgan burch va majburiyatlarni anglash, his qilish va bajarishdagi befarqligining kuchaymoqda. Bunday susayish jamiyatda individual manfaatlar ustuvor bo'lib, umumiy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlar va ijtimoiy birdamlik zaiflashganda yuzaga chiqadi hamda ta'lim oluvchilarda fuqarolik ongining yetarlicha shakllanmagani kuzatiladi.

Ushbu holatlar oliy ta'lim tizimini yangicha qarashlar asosida rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi. Aynan ijtimoiy-falsafiy tahlil vositasida bu muammolar ildiziga chuqurroq nazar tashlash, ularning sabablari va oqibatlarini anglash mumkin. Ijtimoiy-falsafiy asoslangan quyidagi takliflar oliy ta'lim tizimini ijtimoiy-madaniy o'zgarishlarga mos holda rivojlantirishga xizmat qiladi. Oliy ta'limda milliy madaniyat, til, tarix va mentalitetga asoslangan yondashuvlar bilan birga global bilimlarning uyg'unlashtirilishi juda muhim ahamiyatga ega. Bu yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashning zaruriy sharti hisoblanadi. Yurtimizning taraqqiyoti uchun oliy ta'limda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligini ta'minlash muhim vazifa bo'lib qoladi. Bu yoshlarga o'z milliy ildizlariga sodiq qolgan holda global dunyoda o'z o'rnini topishlariga yordam beradi. Tanqidiy tafakkurni shakllantirish: Talabalarni mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy masalalarga faollik bilan yondasha oluvchi shaxs sifatida tarbiyalash – asosiy vazifalardan biri bo'lishi lozim. Har bir talabani individualligi asosida rivojlantirishga qaratilgan holistik (butunlikka asoslangan) pedagogik yondashuvlar joriy etilishi kerak. Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi muhim jihat sifatida turli madaniyatlarni anglash, hurmat qilish va madaniy xilma-xillikni qadrlashni o'rgatish zarur.

Xulosa qilib aytganda Ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar sharoitida oliy ta'lim tizimi nafaqat bilim beruvchi, balki madaniyatni asrovchi, ijtimoiy ongini shakllantiruvchi va shaxsni kamol

toptiruvchi muhim ijtimoiy institut sifatida yangicha falsafiy tahlilga haqli. Faqat texnologik yoki me'yoriy islohotlar bilan cheklanib qolish yetarli emas, balki bu tizimning fundamental ijtimoiy-falsafiy asoslarini chuqur qayta ko'rib chiqish zarur. Bu jarayonda ta'lim falsafasi yangicha mazmun kasb etib, u endilikda texnologik rivojlanish, qadriyatlar transformatsiyasi, axborot portlashi, madaniy begonalashuv va global raqobat sharoitida milliy identitetni saqlab qolish va uni rivojlantirish vositasiga aylanmoqda. Oliy ta'limning asosiy kuchi – talaba shaxsini tarbiyalashda emas, balki uni ijtimoiy-madaniy muhitga ongli va faol tarzda moslashtirish, o'z hayoti va jamiyat taqdiriga mas'uliyat bilan qaraydigan fuqaroga aylantirishdadir. Oliy ta'limni shaxs va jamiyat ehtiyojlariga mos holda modernizatsiya qilish, uni gumanistik, tanqidiy va madaniy asoslarda boyitish – barqaror taraqqiyotning kafolatidir. Bu yo'nalishda olib boriladigan har qanday strategik harakat – jamiyatning ijtimoiy ongini, intellektual salohiyatini va madaniy merosini mustahkamlashga xizmat qiladi. Zero, ijtimoiy ong va intellektual salohiyat bir-birini to'ldiruvchi tizimli jarayon bo'lib, ularning uyg'un rivoji barqaror jamiyatning kafolati hisoblanadi. Oliy ta'lim esa bu jarayonning markazida turib, shaxsni nafaqat kasb egasi, balki madaniy ongli, tanqidiy fikrlovchi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirgan fuqaroga aylantirish vazifasini bajaradi. Shu bois, ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar davrida ta'lim strategiyalari qisqa muddatli ehtiyojlardan emas, balki uzoq muddatli ma'naviy barqarorlik, madaniy vorislik va fuqarolik ongini rivojlantirish maqsadidan kelib chiqishi lozim. Har qanday islohot, har qanday yangilik, avvalo, inson kapitaliga xizmat qilishi, u orqali jamiyatda ongli islohotlarni amalga oshirishga turtki bo'lishi kerak. Natijada, oliy ta'lim faqat bilim berish maydoni emas, balki ijtimoiy ongni boshqaruvchi, milliy tafakkurni shakllantiruvchi va madaniy merosni zamon talablari bilan uyg'unlashtiruvchi strategik maydon sifatida qaralishi lozim.

References:

Используемая Литература:

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
2. Abdujalilov Z.M. Falsafa va ta'lim: zamonaviy qarashlar. – Toshkent: O'zbekiston, 2019.
3. Habermas, J. The Theory of Communicative Action. – Boston: Beacon Press, 1984.
4. Dewey, J. Democracy and Education. – New York: The Free Press, 1916.
5. Freire, P. Pedagogy of the Oppressed. – London: Bloomsbury Publishing, 2000.
6. G'afurov T.Yu., Jalilov T.S. Oliy ta'lim tizimida modernizatsiya jarayonlari. – T.: Iqtisodiyot, 2021.
7. Quronov A. Global madaniyat va milliy o'zlik. – T.: Ma'naviyat, 2017.
8. Toshmuhamedov O. Falsafiy tafakkur asoslari. – T.: Sharq, 2020.
9. UNESCO. Rethinking Education: Towards a global common good? – Paris: UNESCO Publishing, 2015.
10. To'xtayev B. Ijtimoiy falsafa asoslari. – T.: TDPU, 2022.